



## “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

2022-yil 20-yanvar

Navoiy shahri

### PRESS-RELIZ

**2022-yil 20-yanvar kuni Navoiy mashinasozlik zavodida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish, kooperatsiya aloqalari, importni maqbullashtirish yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar natijadorligi bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun press-tur va matbuot anjumani o‘tkazildi.**

Press-tur davomida OAV vakillari va jurnalistlar Navoiy mashinasozlik zavodining Quymachilik va Asbobsozlik sexlarida bo‘lib, korxonada ish jarayonlari va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar bilan yaqindan tanishdilar hamda ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdilar.

Navoiy mashinasozlik zavodi mamlakatimizdagi eng yirik mashinasozlik korxonasidir. Bu erda, ayni paytda qariyb 4 ming nafar muhandis-texnologlar, metallurklar, mexaniklar, konstruktorlar va boshqa kasb egalari fidokorona mehnat qilishmoqda. Bugungi kunda NMZda ishlab chiqarilayotgan qariyb 15 ming turdagi metall va yog‘ochga ishlov beruvchi dastgohlar, yirik avtomobillar uchun murakkab detallar va boshqa yuqori sifatli mahsulotlar nafaqat mamlakatimiz korxonalari, balki xorijiy davlatlarga ham etkazib berilmoqda.

Zavod ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish doirasida “Mexanik yig‘uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash” loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha bo‘yicha bugungi kunda sexning yangi binosi qurilishi yakunlanish arafasida. Hamda zamonaviy, samaradorligi yuqori dastgohlar olib kelinib, ishga tushirishga tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, kombinat bo‘linmalarida sharli tegirmonlar va kon-shaxta uskunalari uchun Quymachilik sexida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini oshirish uchun quyma mahsulotlari hajmini 2026-yilga kelib 40 ming tonnaga etkazish rejalashtirilgan. Hozir quymachilik sexida qurilish va rekonstruksiya ishlari jadal sur‘atlarda olib borilmoqda. Jumladan, 25 tonnalik metall erituvchi pech, zamonaviy pnevmotransportyorlar, qoliqlash mashinalari, 25 taga yaqin nostandart jihozlar NMZda ishlab chiqarilib, o‘rnatildi.

2022-2024-yillarda kombinat Investitsiya dasturi doirasida NMZda dastgohsozlik sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha 28 ta zamonaviy, yuqori aniqlikdagi dasgohlarni xarid qilish rejalashtirilgan. Kelajakda chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda kooperatsiya yo‘nalishida zamonaviy, jahon talablariga mos keladigan raqamli dasturlash boshqaruviga ega dastgohlarni ishlab chiqarish va 200 ta yangi ish o‘rinlarini yaratish rejalashtirilgan.

So‘ng tadbir ishtirokchilari uchun NMZ majlislar zalida matbuot anjumani tashkil etildi.

Matbuot anjumanida “NKMK” AJ bosh direktorining xodimlar va ma‘muriy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, boshqaruv a‘zosi Q.Taparov, “NKMK” AJ “Navoiy mashinasozlik zavodi” ishlab chiqarish birlashmasi direktori J.Hayitov, “NKMK” AJ Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktori X.Raupov, “NKMK” AJ Mahalliyashtirish, ehtiyojlarni rejalashtirish va zaxiralarni boshqarish boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari S.Alimov, ommaviy OAV vakillari va jurnalistlar ishtirok etishdi.

Tadbirda ta‘kidlanganidek, mamlakatimizda mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirish iqtisodiyotning

muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bu masalaga davlatimiz Hukumati tomonidan alohida eʼtibor qaratilib, muhim qarorlar, dasturlar, yoʻl xaritalari qabul qilinmoqda.

Kombinatda 2017-2019-yillarda mahalliyashtirish dasturi doirasida 83 ta loyiha boʻyicha umumiy qiymati 393,9 mlrd soʻmlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilgan boʻlsa, birgina 2021-yilning oʻzida korxonada 154 ta loyiha boʻyicha 442,2 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

“NKMK” AJ oʻzining ilgʻor tajribasi – tadbirkorlik subʼektlarini qoʻllab-quvvatlashni nazarda tutuvchi “shatakka olish” mexanizmini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Bu, bugun kombinat va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun oʻzining yaxshi samarasini berayapti. “Gidro Stanko Servis”, “Navpromlitmash”, “Chilon Lubricants”, “Uchquduq Prom Zona”, “SK Sanoat Kompaniyasi”, “Texno Rezina”, “Karmana-Sharqona Invest” masʼuliyat cheklangan jamiyatlari va boshqa korxonalar bilan yoʻlga qoʻyilgan mustahkam hamkorlik aloqalari kombinat uchun ham, ushbu ishlab chiqaruvchilar uchun keng imkoniyatlarni yaratib berilayotganligi taʼkidlab oʻtildi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi va elektron kooperatsiya portali orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 2021-yilda jami 4,3 trln soʻmlik, jumladan, elektron kooperatsiya portali orqali tuzilgan 2 392 ta shartnoma asosida umumiy qiymati 2,1 trln soʻmlik mahsulot xarid qilinib, oʻsish surʼati 2020 yilga nisbatan 116,2 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 2021-yilda oʻtkazilgan respublika va hududiy sanoat yarmarkalari doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan 86 ta hamkorlik memorandumlari hamda mahsulot xarid qilish boʻyicha 2,1 trln soʻmlik shartnomalar tuzildi.

Kombinatda import mahsulotlarni qisqartirishning maqsadli koʻrsatkichlari boʻyicha ham keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, uning 2021-yildagi koʻrsatkichi 84,3 mln dollarni tashkil etdi. Korxonada kooperatsiya aloqlarini kengaytirish hisobiga 2021-yilda 23,5 mln dollar boʻlgan 56 turdagi import oʻrnini bosuvchi mahsulotlar xarid qilindi.

Ilgarilari ishlab chiqarish korxonalari uchun kerakli dastgohlar, ehtiyot qismlari katta valyuta hisobiga chetdan olib kelinar edi. Bugunga kelib kombinat mutaxassislarining salohiyati evaziga eng murakkab boʻlgan ehtiyot qismlaridan oddiylargacha Markaziy Osiyodagi eng yirik mashinasozlik korxonalaridan biri boʻlgan Navoiy mashinasozlik zavodida hamda korxonada boʻlinmalaridagi sexlarda ishlab chiqarilmoqda. Bu muvaffaqiyatlarning omili ishning toʻgʻri tashkil etilgani, buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani, oʻzining innovatsion loyihalari bilan yangilik kiritayotgan mutaxassislar mehnati oʻz ragʻbatini topayotgani amalda isbotlayotganidandir.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlar savollariga atroflicha javoblar berildi.

**Murojaat uchun maʼlumotlar:**

“NKMK” AJ matbuot xizmati, Ish telefoni: +99879 227-74-73

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

<https://t.me/ngmkofficial>, [www.fb.com/ngmkofficial](http://www.fb.com/ngmkofficial), [instagram.com/ngmk.official](https://www.instagram.com/ngmk.official)